

MADANIY REALIYALAR VA ULARNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI O'RNI

Gulxayyo Soliyeva Ibrohimjon qizi

Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
gulhayoibrohimovna@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604486>

Annotatsiya: Mazkur maqolada realiya tushunchasining mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o'rni, milliy realiyalar va ularning boshqa leksik birliklar orasidagi farqi ochib berilgan. Shuningdek, realiyalarni tasniflash masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Realija birliklarining xalq turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi hamda ularning lug'at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o'rni izohlangan. Realiyalarni o'rganish va ular bilan bog'liq tadqiqotlar doirasini kengaytirish muayyan tilning ichki taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishda va madaniyatlar orasidagi farqlarni keng yoritishda o'ziga xos ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Realija, lingvokulturologiya, lingvomamlakatshunoslik, muqobilsiz leksika, milliy kolorit, irrealija, atama.

Annotation: This article reveals the essence of the concept of reality, its role in linguistics, the difference between national realities and other lexical units. It also touches upon the issues of classifying realities. The connection of reality units with the way of life, worldview and culture of the people, as well as their role in increasing the richness of the vocabulary and reflecting the national color, is explained. It is noted that the study of realities and expanding the scope of research related to them is of particular importance in studying the internal development characteristics of a particular language and in broadly highlighting the differences between cultures.

Key words: Reality, linguoculturology, linguonational studies, non-alternative lexicon, national color, unreality, term.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность понятия реалии, ее роль в лингвистике, отличие национальных реалий от других лексических единиц. Также затрагиваются вопросы классификации реалий. Объясняется связь единиц реалии с образом жизни, мировоззрением и культурой народа, а также их роль в увеличении богатства словарного запаса и отражении национального колорита. Отмечается, что изучение реалий и расширение сферы исследований, связанных с ними, имеет особое значение в изучении особенностей внутреннего развития конкретного языка и в широком освещении различий между культурами.

Ключевые слова: Реальность, лингвокультурология, лингвострановедение, безальтернативная лексика, национальный колорит, нереальность, термин.

Kirish (Введение/Introduction). Hammamizga ma'lumki, til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganadigan soha lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri realiyadir. Realija tarjimashunoslik, qiyosiy-tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda tillararo va madaniyatlararo farqlarni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Realija madaniy munosabatlar darajasini yoritishga xizmat qiladi, xalqning turmush tarziga oid

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

tushunchalarni aks ettiradi. Realiyalar kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi davrlarida shakllangan tushunchalar bo'lib, madaniyatlar o'rtasidagi farqlar yuzaga kelgan davrlarga to'g'ri keladi. Realiyalarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realiyaning dastlabki ma'nosi madaniyatlarning o'ziga xos belgilarini aks ettiruvchi narsa-buyum haqidagi tushunchalardir. “Realiya” so'zining etimologiyasi ham lotincha “moddiy” degan tushunchaga teng keladi.

Realiyalar- real borliq darajasi. Tilni o'rganilayotgan xalq madaniyatida u yoki bu realiyaning, o'ziga xos so'zning, predmetning mavjud emasligi shunga olib keladiki, so'zning barcha semantik tuzulishi, uning leksik asosini qo'shib hisoblaganda madaniy o'ziga xos bo'lib qoladi. Shuningdek, og'zaki nutqimizda mavjud bo'lib, milliy hamda madaniy xususiyatlarimizni ko'rsatib beruvchi so'z birliklari mavjudki, ular bizning atrof, olam va tabiat bilan uzviy bog'liq holda tafakkurimizda mavjud ekanligini ko'rsatadi. Lingvokturemadan farqli o'laroq realiya faqat so'z va iboralarda aks etadi. Bu borada olib borilgan izlanishlar unga turlicha ta'rif berilishiga sabab bo'lgan. Jumladan, R.Fayzullayeva tarjimada milliy koloritni aks ettirishni o'rganar ekan, unga quyidagicha izoh beradi: “Realiyalar bir xalq tilida paydo bo'lib, millatning turmush tarzi, tarixi, madaniyatini o'zida aks ettiradi va o'zga tilda uning aniq muqobili bo'lmaydi”. Realiyalar ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan milliy-madaniy jihatlarni aks ettiruvchi birlik bo'lib, ularda xalqning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy ruhi, tarixi va madaniyati bilan bog'liq axborot zohir bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods). Realiyalarni moddiy madaniyat belgilari sifatida baholash mumkin. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda predmetlarni ifoda etuvchi so'z va iboralar keng ma'noda realiyalar deb yuritiladi. Realiyalarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy va tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o'rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan.

A.V.Fedorov “realiya” deganda “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi”, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlar"ni tushunadi. Realiyalar o'zga tildagi matnlarni tushunish uchun zarur bo'lgan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar tarixi va muhim tarixiy voqealari, madaniyati, xalq og'zaki ijodi, siyosiy hayoti haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmaslik til bilimlari borasida kompetensiyani yo'qotishga olib keladi. A.D.Shveytser fikriga ko'ra, realiyalarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya'ni ular uchun begona bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. G'arb tarjima maktabi olimlaridan biri Pedersen realiyani umumiy foydalanishdagi asosiy ma'nosi tufayli juda noaniq va chalkash deya tanqid qiladi. Uning fikrlariga qaraganda, realiyaning asl nomlanishi (“real narsalar”) ham haqiqatga ziddir. Realija soʻzlar, mavhum tushunchalarni ham anglatishi mumkin. Ushbu paradoksni hal etish uchun Laponen (2009) xayoliy dunyoning oʻylab topilgan buyumlari uchun “irrealiya” (irrealiya) atamasini taklif qilgan. Realialar borasidagi yaxlit fikrlar bolgar olimlari S.I.Vlaxov va S.P.Florinlarning “Непереводимое в переводе” asarida batafsil yoritilgan. Unga koʻra: “Realialar-muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlarini, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi soʻz va soʻz birikmalari boʻlib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar”. Realialarning muhim xususiyati ular ifodalaydigan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Muayyan xalqning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti reanyalarning mohiyatiga, albatta, oʻz ta'sirini koʻrsatadi. Ana shuning uchun ham realialar toʻgʻrisida gapirganda, albatta, milliy oʻziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini chetlab oʻtib boʻlmaydi. Chunki realialar har qanday holatlarda ham bir vaqtning oʻzida milliy va tarixiy boʻyoqqa ega boʻladi. Bu esa ularga alohida munosabatda boʻlishni talab qiladi

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Madaniy realialar har bir xalqning milliy oʻziga xosligini, madaniyatini va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi tushunchalar boʻlib, ular tilning ajralmas qismidir. Ushbu maqolada madaniy realialar va ularning oʻzbek tilshunosligidagi ahamiyati haqida batafsil tahlil qilinadi. Madaniy realliklar tilshunoslikda xalqning kundalik hayoti, anʼanalari, urf-odatlarini, diniy eʼtiqodlarini va ijtimoiy hayotini ifodalovchi tushunchalar sifatida koʻriladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

Leksik birliklar: soʻz yoki soʻz birikmalari orqali ifodalanadi (masalan, “doʻppi”, “sumalak”, “rayhon” va boshqalar).

Tarixiy va geografik kontekstga bogʻliqlik: Madaniy realliklar muayyan mintaqa yoki davrga xos boʻladi.

Tarjimaning qiyinligi: chet tillarga tarjima qilishda muammolar tugʻdiradi, chunki boshqa madaniyatlarda ular uchun ekvivalent tushunchalar boʻlmasligi mumkin.

Oʻziga xos semantik yuk: ular faqat lugʻaviy maʼno bilan cheklanmay, maʼnaviy va emotsional qimmatga ham ega.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O‘zbek tili boy madaniy merosga ega bo‘lib, u orqali xalqning tarixiy va madaniy qiyofasi namoyon bo‘ladi. Quyida o‘zbek tilidagi ayrim madaniy realiyalar misol qilib keltiriladi:

Ovqatlanish va milliy taomlar: “osh”, “non”, “mastava”, “shashlik”. Bu tushunchalar nafaqat ozuqa sifatida, balki xalqning mehmondo‘stlik va bag‘rikenglik kabi fazilatlarini ifodalaydi.

An’anaviy kiyim-kechak: “atlas”, “do‘ppi”, “ko‘ylak”. Ushbu birliklar milliy liboslarning estetik va amaliy jihatlarini ochib beradi.

Bayram va urf-odatlar: “Navro‘z”, “kampir o‘ldi”, “kuyov navkar”. Bunday tushunchalar xalqning bayramona ruhiyati va jamoaviy birlik hissini ifodalaydi.

Bu tushunchalar faqatgina til birligi sifatida emas, balki xalqning o‘ziga xosligi va hayot tarzining ko‘zgusi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy realiyalarni boshqa tillarga tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi: Matnni saqlash: madaniy realliklar to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinsa, ularning ma‘nosi yo‘qolishi yoki buzilishi mumkin. Shu sababli, ularni asl mazmunini saqlab qolish muhimdir.

Ekvivalent topish: ba‘zan boshqa madaniyatlarda mos tushunchalar mavjud bo‘lmagani sababli ularni tushuntirish zarur bo‘ladi.

Tafsir va moslashtirish: tarjimada tushuntirish (tafsir) usuli yoki moslashtirish usulidan foydalaniladi. Masalan, “Navro‘z”ni “spring festival” deb tarjima qilish madaniy mazmunni to‘liq yetkazmaydi.

O‘zbek tilshunosligida madaniy realiyalar alohida ahamiyatga ega mavzu sifatida o‘rganiladi. Quyidagi yo‘nalishlar ushbu sohada muhim hisoblanadi:

Leksik-semantik tadqiqotlar: So‘zlarning kelib chiqishi, ma‘nosi va o‘zgarishi o‘rganiladi. Bu yo‘nalish milliy madaniyatni til orqali tushunishga yordam beradi.

Tarjimashunoslik: Madaniy realiyalarni tarjima qilish usullari va qoidalari ishlab chiqiladi. Bu esa xalqaro kommunikatsiyani osonlashtiradi.

Madaniyatlararo kommunikatsiya: O‘zbek tilining boshqa madaniyatlar bilan aloqasidagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar madaniy almashuvni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbek xalqining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kiyimlar hozirgi kunda butun dunyoga tanilmoqda. O‘zbek milliy liboslariga ayollar uchun zar chopon, do‘ppi, kamzul, erkaklar uchun do‘ppi, chopon, belbog‘ va yaktak kabilar kiradi. O‘zbek milliy libosi jahonda o‘z o‘rniga ega. Misol uchun, do‘ppi- O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. U,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

asosan, baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. O'zbekiston Chust, Toshkent, Samarqand, Buxoro do'ppilari bilan mashhur. Do'ppi tikuvchi chevar “do'ppido'z”, do'ppi tikish kasbi esa “do'ppido'zlik” deyiladi. Ro'mol- ayollar milliy bosh kiyimi bo'lib, ayollar yoshiga mavqeyiga qarab turli xildagi ro'mollarni o'rashadi. Paranja- o'zbek ayollari qadimda yuzlarini begona kishilardan yashirish uchun yopinib yurishgan. Zar chopon- O'zbek ayollarini qishda sovuqdan saqlovchi kiyimdir. Bu chopon asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o'zbek xalqining qadimiy kiyimlaridan biridir. Chiroyli atlas, adras kabi ipak matolar qadimdan o'zbek ayollari sevib kiyadigan milliy matolardir. Bu mato ipakdan tayyorlanadi. Qancha-qancha zamonlar o'tib ketsa ham bu matolardan o'z davriga moslab, xoh o'zbekcha, xoh yevropacha uslubda kiyimlar tikib kiyish urfga kirgan. O'zbekistonda eng mashhur atlas Marg'ilon shahrida to'qiladi. Oyoq kiyimlardan uzun qo'njli, poshnasiz, tag charmi yumshoq bo'lgan kovush bilan kiyiladigan mahsi milliy poyabzal hisoblangan.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan madaniy realiyalardan yana biri bu qumg'on bo'lib, u choy qaynatish uchun ko'pincha misdan yasaladigan, ichi qalay bilan oqartirilgan, ko'zacha shaklidagi dastali va qopqoqli idish; katta choydush. Mis qumg'on. O'choqning og'zida o'tga ko'milgan qora qumg'on vaqirlab qaynaydi. S.Anorboev, “Xotima”. Bo'taboy qumg'onga choy damlab olib keldi. S.Ahmad. “Hukm”. Suv ichish, choy qaynatish uchun ishlatiladi. Og'zi (bo'yni) keng, jo'mragi tor, qorni katta (ovalsimon) idish. Jo'mragi choy qaynaganda suv to'kilishining oldini oladi. Obdasta, oftobalar bilan “suv idish” ma'nosida umumiylik hosil qiladi. Lekin qumg'ondagi “choy qaynatish uchun mo'ljallanganlik” semasi oftoba, obdasta leksemalarida ifodalanmaydi. O'zbek xalq qo'shiqlarida ham qumg'on “o'choq boshida” deb tasvirlanadi:

O'toq boshida qumg'on, atrofi baland qo'rg'on.

O'zbeklarning xontaxtasi va dasturxonini ham xalqimiz hayotida alohida o'rin tutadi. O'zbeklar azaldan bolajon xalq bo'lganliklari sababli stol-stulni emas kataxontaxta atrofida to'kin dasturxon solib ovqatlanishni, o'yin-kulgu qilishni afzal ko'rishgan. Aynan shu mavzuga doir sandal, tokcha, ko'rpacha, lo'la-bolish, taxmonpo'sh kabi realiyalar ham xontaxta va uning atrofida qo'llaniluvchi realiyalar hisoblanadi. Bundan tashqari o'zbek milliy taomlari nomlari ham realiyalar safiga kiradi. Shohona taom hisoblanmish palov, ulug' ne'matimiz non, patir, bahorning tansiq taomi bo'lmish sumalak, somsa, chuchvara, manti, xonim, mastava, kabob, va ichimliklardan choy shular jumlasidandir. O'zbek xalqiga mansub umumiy ovqatlanish joylari nomlaridan choyxona, oshxona, mahalla guzari kabilarni misol keltirish mumkin. O'zbek realiyalari orasida shunday realiyalar borki, ular

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

xalqimizning chuqur tarixi, boy madaniy me'rosi, urf-odatlarini, an'analari bilan bog'liqdir. Bu an'analar yillar o'tsada ajdoddan avlodga o'tib kelmoqda. Jumladan: - beshik to'y – to'y bilan bog'liq marosim bo'lib, ayrim hududlarda farzand tug'ilgandan so'ng bir oy muddatda, ayrim joylarda esa, bir yildan so'ng, “beshik bolasi – bek bolasi” ekanligini bildirish uchun qilinadi. Sunnat to'y ham to'y bilan bog'liq marosim bo'lib, u bolani musulmon bo'lganligini ommaga e'lon qilish uchun nishonlanadi. Avvallari 3-5 kun davom etgan, hozir esa bir kungina nishonlanadi. To'ylar bilan bog'liq sabzi to'g'rar, quloq tishlash, non sindirish, mushkul-kushod, yuz ochdi, kuyov chiqdi kabi marosimlarni bildiruvchi realiyalar ham mavjud. O'zbeklarimizda bir-biriga murojaat qiluvchi hech bir millatda uchramaydigan: qoqindiq, o'rgilay, aylanay, bibi kabi so'zlar ham mavjud.

Milliylikni bildiruvchi choyxona, mahalla so'zlarida ham o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlar, an'analar mavjud bo'lib, o'zbeklar azaldan choyxonalarda, mahalla guzarlarida bir piyola choy ustida suhbat qurishgan, yangiliklarni bir-birlari bilan bo'lishishgan.

Milliy realiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, o'zbek madaniyati va san'ati bilan bog'liq bo'lgan: karnay-surnay, baxshi, tanovar, shashmaqom, omonyor, lapar, yor-yor kabi realiyalarni ham aytib o'tish joiz, chunki ular o'zbek xalqining xursandchiligi, o'yin-kulgusi bilan bog'liq bo'lib, o'zbek to'ylari aynan karnay-surnaylar-u milliy laparlar, tanovor-u yor-yorlarsiz o'tmaydi Bu kabi milliylikka xos realiyalar har bir xalqda uchraydi. Ularni o'rganish, yoki o'zga tilga tarjima qilish har bir tarjimondan nafaqat keng tarjimashunoslik to'g'risida nazariy bilim, balki, o'zga xalqlar turmush sharoiti, madaniyati, urf-odatlarini haqida xabardor bo'lishlikni ham talab etadi.

Bundan tashqari, realiyalarni to'g'ri qo'llashda tarjimonning qobiliyati va zehni bilan birgalikda matn uslubi ham katta ro'l o'ynaydi.

Bugungi kunda zamonaviy og'zaki nutqimizda mavjud bo'lgan til birligi sifatidagi realiya muqobilsiz leksika sirasiga kiradi. U lingvistik bilimning ajralmas qismi bo'lib, til va madaniyatning o'zaro aloqasini tadqiq etishda muhim qiziqish uyg'otadi. Ko'p hollarda biz tilning ijtimoiy tomoniga ko'proq V.G.Gak esa lakunalarni “tilning leksik tizimidagi bo'shliqlar, bor bo'lishi kerakdek ko'ringan so'zlarning mavjud emasligi” deya ta'rif beradi. Ya'ni bir tilda mavjud ma'lum bir tushuncha boshqa bir tilda ham mavjud bo'ladi, biroq buni ifodalaydigan vosita so'z mavjud bo'lmaydi. Lakunaning realiyaga o'xshash biroq lingvokturemadan farqli tomoni ham ayni shunda, ya'ni u tillar o'rtasidagi madaniy turli xillik tufayli yuzaga keladi. Biroq uni realiyadek tarjima qilish uchun muqobil ham boshqa vosita ham

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bo'lmaydi. Shunchaki bu bo'shliqlikning mavjudligi hisoblanadi. Shu sababdan “lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo'lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so‘z va so‘z birikmalaridir”.

Xulosa. Madaniy realiyalarni o‘rganish va tahlil qilish til o‘rganish jarayonida alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Negaki, ma’lum bir til amalda bo‘lgan davlatda uning madaniyatini ham o‘rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirib borish til o‘rganish jarayonini sifatli bo‘lishini ta’minlaydi. Aynan realiyalar tilning lug‘at boyligi, uning frazeologik qatlami, lingvomadaniy birliklarning mazmun-mohiyatini yoritishda muhim birliklar hisoblanadi.

Madaniy realliklar milliy madaniyat va tarixni saqlab qolish, targ‘ib qilish va boshqa madaniyatlar bilan aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilshunosligi ushbu realiyalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali milliy o‘ziga xoslikni chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Bu esa nafaqat tilni rivojlantirish, balki xalqning madaniy boyligini xalqaro miqyosda tanitishda ham muhim ahamiyatga ega. Madaniy realiyalarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali o‘zbek xalqining boy madaniy merosi kelajak avlodlar uchun bebaho boylik sifatida yetkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: 2019.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская энциклопедия, 1966. 608 с.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.: Международные отношения, 1975. -240 с.
4. Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения. Русский язык за рубежом. – 1972. № 3. – 156 с.
5. Васильева, А. Н. Газетнопублицистический стиль речи. Курс лекций по стилистике русского языка. А. Н. Васильева. – М., 1982. – 198 с.
6. Вежицкая А. “Язык. Культура. Познание”. М.Русские словари, 1996. -344 с
7. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. М.: Русский язык, 1983. -269 с.